



MUSULMON MAMLAKATLARIDAGI KORPORATIV TASHKILOTLAR

Jo'raqulov Mirkomil Jamshid o'g'li

*Toshkent Davlat Transport Universiteti "Iqtisodiyot" fakulteti Yurisprudensiya
yo'nalishi 2-bosqich Yu-13 guruh talabasi.*

E-mail: [mirkomiljuraqulov942@gmail.com]

Ilmiy rahbar: Imomov Bahridin Panjiyevich

*Toshkent davlat transport universiteti, Xalqaro ommaviy huquq
kafedrası katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada musulmon mamlakatlarida amal qiluvchi korporativ tashkilotlarning huquqiy maqomi, tashkiliy-huquqiy shakllari hamda islom huquqi (shariat) prinsiplarining korporativ munosabatlarga ta'siri tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasining xorijiy korporativ tajribani o'rganishga bo'lgan ehtiyoji hamda xalqaro iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi bilan bog'liq. Tadqiqot usuli sifatida qiyosiy-huquqiy, tizimli-tahliliy va huquqiy-dogmatik metodlardan foydalanilgan. Muallif tomonidan Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Malayziya, Eron va Misr kabi musulmon mamlakatlarida korporativ tashkilotlarning zamonaviy turlari tahlil qilinib, ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda islom moliya institutlari (mudaraba, musharaka) bilan bog'liqligi ochib berilgan. Natijada, musulmon mamlakatlarida korporativ tashkilotlarning g'arb namunasi asosida shakllangan bo'lsa-da, shariat prinsiplariga muvofiqlashtirilgan o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *korporativ huquq, musulmon mamlakatlari, shariat, mudaraba, musharaka, aksiyadorlik jamiyati, islom korporativ boshqaruvi.*

Аннотация. *В данной статье исследуются правовой статус корпоративных организаций, действующих в мусульманских странах, их организационно-правовые формы, а также влияние принципов исламского права (шариата) на корпоративные отношения. Актуальность исследования обусловлена потребностью Республики Узбекистан в изучении зарубежного корпоративного опыта и усилением международной экономической интеграции. В качестве методов исследования применялись сравнительно-правовой, системно-аналитический и юридико-догматический методы. Автором проанализированы современные виды корпоративных организаций в Саудовской Аравии, Объединённых Арабских Эмиратах, Малайзии, Иране и Египте, раскрыты их специфические особенности и связь с институтами исламских финансов (мудароба, мушарака).*

Ключевые слова: *корпоративное право, мусульманские страны, шариат, мудараба, мушарака, акционерное общество, исламское корпоративное управление.*





Abstract. *This article examines the legal status of corporate organizations operating in Muslim countries, their organizational and legal forms, as well as the influence of Islamic law (Sharia) principles on corporate relations. The relevance of the research is driven by the Republic of Uzbekistan's need to study foreign corporate experience and the strengthening of international economic integration. Comparative-legal, systemic-analytical and legal-dogmatic methods were applied as research methods. The author analyzes modern types of corporate organizations in Saudi Arabia, the United Arab Emirates, Malaysia, Iran and Egypt, revealing their specific features and connection with Islamic finance institutions (mudarabah, musharakah).*

Keywords: *corporate law, Muslim countries, Sharia, mudarabah, musharakah, joint-stock company, Islamic corporate governance.*

Kirish

Zamonaviy globallashuv sharoitida turli huquqiy tizimlarga mansub davlatlarning korporativ huquqini qiyosiy o'rganish alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Musulmon mamlakatlaridagi korporativ tashkilotlar o'zining o'ziga xos huquqiy tabiati bilan ajralib turadi, chunki bu mamlakatlarda korporativ munosabatlar nafaqat dunyoviy qonunchilik, balki islom huquqi (shariat) normalariga ham moslashtirilgan holda tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "Harakatlar strategiyasi"da ham davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va islom moliya institutlarini joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

B.Umarov va X.Atajanovlarning "Korporativ huquq" o'quv qo'llanmasida ta'kidlanganidek, kontinental va anglo-sakson huquqiy tizimlarida korporatsiya tushunchasi turlicha talqin etiladi [1; 5–7]. Biroq, musulmon mamlakatlaridagi korporativ tashkilotlar bu ikki tizimdan ham farqli ravishda, diniy-huquqiy qadriyatlar ta'siri ostida shakllangan maxsus xususiyatlarga ega. Mazkur maqolada Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyoning yetakchi musulmon mamlakatlari (Saudiya Arabistoni, BAA, Malayziya, Eron, Misr) misolida korporativ tashkilotlarning zamonaviy holati tahlil etiladi.

Asosiy qism

1. Musulmon mamlakatlaridagi korporativ tashkilotlarning huquqiy asoslari.

Musulmon mamlakatlaridagi korporativ huquqning o'ziga xosligi shundan iboratki, bu mamlakatlarda amal qiluvchi qonunchilik ikki asosiy manbadan oziqlanadi: birinchisi – g'arb (ko'pincha fransuz yoki ingliz) kompaniya huquqidan olingan dunyoviy normalar, ikkinchisi – shariat prinsiplari. Islom huquqida korporatsiya tushunchasi klassik ma'noda mavjud bo'lmasa-da, hamkorlik (shirkat) instituti juda qadimdan rivojlangan. Arabcha "shirkat" (shiriklik) atamasi O'zbekiston qonunchiligidagi xo'jalik shirkatlari tushunchasi bilan etimologik bog'liqlikka ega.



Islom huquqida shirkatning bir necha klassik turlari mavjud: shirkat ul-mulk (mulk sheriklik), shirkat ul-uqud (shartnomaviy sheriklik), shirkat ul-inan (cheklangan sheriklik), shirkat ul-mufawada (to‘liq tenghuquqli sheriklik), shirkat ul-abdan (mehnat sherikligi) va shirkat ul-wujuh (obro‘-e‘tibor sherikligi). Ushbu klassik tushunchalar zamonaviy korporativ institutlarga, xususan, mudaraba va musharaka instituti shaklida evolyutsion rivojlangan [2]. Mudaraba – bir tomon kapital taqdim etadigan (rabb ul-mal), ikkinchi tomon esa mehnat va bilim hissa qo‘shadigan (mudarib) sheriklik shakli bo‘lib, foyda oldindan kelishilgan nisbatda taqsimlanadi, zarar esa kapital egasi zimmasiga tushadi. Musharaka esa barcha sheriklar kapital qo‘shadigan va foyda hamda zararni proporsional tarzda bo‘lishib oladigan sheriklik shaklidir.

Zamonaviy musulmon mamlakatlarida klassik shirkat shakllari o‘rnini kontinental Yevropa yoki anglo-sakson modeliga asoslangan korporativ tashkilotlar egallagan, biroq ularning faoliyati shariat talablariga muvofiqlashtirilgan. Xususan, foiz (riba), noaniqlik (g‘arar) va qimor (maysir) elementlariga yo‘l qo‘yilmaydi. Shariatga muvofiqlikni ta‘minlash uchun har bir yirik korporatsiya huzurida kamida uchta islom huquqi olimidan iborat Shariat nazorat kengashi (Shariah Supervisory Board) tashkil etiladi, ular fatvo chiqarish va korporativ bitimlarni tasdiqlash vakolatiga ega [3].

2. Saudiya Arabistoni va Fors ko‘rfazi davlatlarida korporativ tashkilotlar .

Saudiya Arabistonining yangi 2022 yilgi “Kompaniyalar to‘g‘risida”gi qonuni (Royal Decree No. M/132) korporativ tashkilotlarning beshta asosiy tashkiliy-huquqiy shaklini belgilab beradi: to‘liq sheriklik (Joint Liability Company), kommandit sheriklik (Limited Partnership Company), aksiyadorlik jamiyati (Joint Stock Company – JSC), soddalashtirilgan aksiyadorlik jamiyati (Simplified Joint Stock Company – SJSC) va mas‘uliyati cheklangan jamiyat (Limited Liability Company LLC) [4]. Qonunchilikda soddalashtirilgan aksiyadorlik jamiyati sifatidagi yangi shakl joriy etilgan bo‘lib, u kichik va o‘rta tadbirkorlik hamda venchur kapitali uchun mo‘ljallangan.

Saudiya Arabistonida aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitalining eng kam miqdori 500 000 Saudiya riyali (taxminan 133 000 AQSh dollari), ommaviy aksiyadorlik jamiyati uchun esa 10 million riyalni tashkil etadi. Mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar uchun esa eng kam kapital miqdori belgilanmagan, bu esa mazkur shaklni chet el investorlari orasida eng mashhur shaklga aylantirdi. Aksiyadorlarning javobgarligi ular olgan aksiyalar qiymati bilan cheklangan bo‘lib, bu kontinental Yevropa korporativ huquqiga mos keladi.

Birlashgan Arab Amirliklarida esa 2021 yilgi 32-son Federal Farmon-Qonuni asosida korporativ tashkilotlar faoliyati tartibga solinadi. Mamlakatda Dubay Xalqaro Moliya Markazi (DIFC) va Abu-Dabi Global Bozor (ADGM) kabi erkin iqtisodiy zonalarda anglo-sakson huquqi asosida faoliyat yurituvchi maxsus korporativ rejim mavjud. Bu zonalarda chet el investorlari 100 foiz chet el kapitali bilan kompaniya

tashkil etish huquqiga ega, bu esa mamlakat tashqarisidagi korporativ normalarning qabul qilinishidan dalolat beradi.

3. Malayziya va dualistik korporativ tizim.

Malayziya musulmon mamlakatlari orasida korporativ huquq rivoji bo'yicha alohida o'rin tutadi. Mamlakatda 2016 yilgi "Kompaniyalar to'g'risida"gi qonun (Companies Act 2016) asosida ommaviy kompaniya (public company limited by shares), xususiy kompaniya (private company limited by shares), cheksiz mas'uliyatli kompaniya (unlimited company) va kafolat bilan cheklangan kompaniya (company limited by guarantee) kabi shakllar ajratiladi. Malayziyaning o'ziga xosligi shundaki, u yerda an'anaviy korporativ tashkilotlar bilan bir qatorda shariatga mos (Sharia-compliant) kompaniyalar instituti juda rivojlangan.

Shariatga mos kompaniyalar ikki bosqichli nazorat mexanizmi asosida faoliyat yuritadi: birinchi bosqich – sifat mezonlari (faoliyat yo'nalishi islom huquqiga zid bo'lmasligi kerak, ya'ni alkogol, tamaki, qimor, cho'chqa go'shti, foizga asoslangan moliyaviy xizmatlar va hokazo taqiqlangan), ikkinchi bosqich – miqdor mezonlari (foizli qarzlarni kompaniya aktivlarining 33 foizidan oshmasligi, haromga tegishli daromad 5 foizdan kam bo'lishi lozim). Mazkur mezonlarni nazorat qiluvchi asosiy organlar – Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi Islom moliyaviy xizmatlar kengashi (IFSB, Kuala-Lumpurda joylashgan) va Islom moliya muassasalari uchun buxgalteriya va audit tashkiloti (AAOIFI, Bahraynda joylashgan) hisoblanadi.

1-jadval. Ayrim musulmon mamlakatlarida korporativ shakllarning qiyosiy tahlili

Mezon	Saudiya Arabistoni	BAA	Malayziya
Asosiy qonun	Kompaniyalar to'g'risida qonun (2022)	32-sonli Federal Farmon-Qonun (2021)	Kompaniyalar to'g'risida qonun (2016)
Asosiy shakllar	JSC, SJSC, LLC, sheriklik	PJSC, PrJSC, LLC, erkin zona kompaniyalari	Public/Private Ltd, kafolatli kompaniyalar
AJ eng kam kapitali	500 000 SAR (private JSC)	5 mln AED (PJSC)	Belgilanmagan
Shariat kengashi	Islom moliya tashkilotlari uchun majburiy	Islom banklari uchun majburiy	Shariat kengashi huzurida SC (davlat)
Chet el kapitali cheklovi	Ayrim sektorlarda cheklangan	Erkin zonalarda 100% xorijiy kapital mumkin	Bumiputera siyosati asosida ayrim cheklovlar

Manba: muallif tomonidan tuzilgan [4; 5; 6].



4. Eron va Misrdagi korporativ tashkilotlar.

Eron Islom Respublikasida 1932 yilgi Savdo kodeksi (Tijorat qonuni) asosida korporativ munosabatlar tartibga solinadi. Eron qonunchiligida korporativ tashkilotlarning yettita turi ajratiladi: ommaviy aksiyadorlik jamiyati (sherkat -e sahami-ye am), xususiy aksiyadorlik jamiyati (sherkat-e sahami-ye khas), mas'uliyati cheklangan jamiyat, to'liq shirkat, kommandit shirkat, nisbiy shirkat va kooperativ. 1979 yilgi Islom inqilobidan so'ng mamlakatda barcha bank va moliya-kredit institutlari shariatga muvofiqlashtirilgan, foizsiz bank tizimi joriy etilgan.

Misrda esa 159/1981-sonli Kompaniyalar to'g'risidagi qonun asosida korporativ munosabatlar tartibga solinadi. Bu qonun asosan fransuz va ingliz kompaniya huquqi namunasida ishlab chiqilgan bo'lib, unda aksiyadorlik jamiyati, aksiyalarga bo'lingan kommandit, mas'uliyati cheklangan jamiyat va sheriklik shakllari belgilangan. Misrda 2020 yilda islom moliya institutlarini alohida tartibga soluvchi qonun qabul qilinib, an'anaviy va islom moliya tizimlari parallel ravishda faoliyat yuritmoqda.

5. Korporativ boshqaruvning islomiy modeli.

Musulmon mamlakatlarida korporativ boshqaruvning o'ziga xos modeli shakllangan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tomonidan qabul qilingan korporativ boshqaruv prinsiplari (adolatlilik, javobgarlik, oshkoralik, hisobdorlik) bu mamlakatlarda ham qo'llanilsa-da, ular islomiy axloq prinsiplari – sadoqat (amana), adolat (adl), maslahat (shura) va hisob-kitob (muhasaba) bilan to'ldiriladi [7]. Korporativ boshqaruvning islomiy modelida aksiyadorlar va menejerlar o'rtasidagi agentlik nazariyasi bilan bir qatorda, kompaniyaning Alloh oldidagi ma'naviy mas'uliyati konsepsiyasi ham e'tiborga olinadi.

Bunday modelning o'ziga xos xususiyati shundaki, korporativ boshqaruvda aksiyadorlar (shareholders) manfaatlari bilan bir qatorda, barcha manfaatdor shaxslar (stakeholders) – kreditorlar, xodimlar, iste'molchilar va umuman jamiyat manfaatlari ham yuqori darajada himoyalanaadi. Bu yondashuv Amerika olimi G.Bouen tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy mas'uliyat nazariyasi bilan uyg'undir. Shuningdek, islom korporativ boshqaruvida zakot (majburiy sadaqa), sadaqa va vaqf kabi institutlar korporatsiya ijtimoiy mas'uliyatining muhim elementlarini tashkil etadi.

Shunday qilib, musulmon mamlakatlaridagi korporativ tashkilotlar o'ziga xos aralash (gibrid) tabiatga ega. Ularning shakliy-huquqiy jihati asosan kontinental Yevropa yoki anglo-sakson huquqidan olingan bo'lsa, mazmun-mohiyat jihatidan shariat prinsiplariga muvofiqlashtirilgan. Bu esa ushbu korporativ shakllarni O'zbekiston Respublikasi uchun ham qiziqarli tadqiqot obyektiga aylantiradi, chunki mamlakatimizda islom moliya tizimini joriy etish yuzasidan hozirda amaliy qadamlar tashlanmoqda.

Xulosa

O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, musulmon mamlakatlaridagi korporativ tashkilotlar zamonaviy shaklda asosan XX asr



boshlarida g'arb (fransuz, ingliz, nemis) kompaniya huquqi namunasi asosida shakllangan, biroq shariat prinsiplari ta'siri ostida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ikkinchidan, eng keng tarqalgan korporativ shakllar – aksiyadorlik jamiyati va mas'uliyati cheklangan jamiyat bo'lib, ular O'zbekiston qonunchiligidagi mos shakllar bilan ko'plab umumiy jihatlarga ega. Uchinchidan, islom moliya institutlari (mudaraba, musharaka) klassik shirkat shakllaridan evolyutsion rivojlangan bo'lib, zamonaviy korporativ munosabatlarda ham o'z o'rniga ega.

To'rtinchidan, korporativ boshqaruvning islomiy modeli IHTT prinsiplari bilan bir qatorda sadoqat, adolat, maslahat va hisob-kitob kabi maxsus axloqiy qadriyatlarga asoslanadi. Beshinchidan, O'zbekiston Respublikasi uchun islom korporativ huquqini o'rganish, xususan, aralash huquqiy model asosidagi korporativ tashkilotlarning huquqiy tartibga solinishini tadqiq etish, shuningdek shariatga mos moliya institutlarini joriy etish borasidagi tajribani o'rganish amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritish, xususan, islom moliya mahsulotlarini huquqiy tartibga soluvchi maxsus qonun qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umarov B., Atajanov X. Korporativ huquq: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2021. – 78 b.
2. Hassan M.K., Lewis M.K. Handbook of Islamic Banking. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2020. – 460 p.
3. El-Gamal M.A. Islamic Finance: Law, Economics, and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2019. – 240 p.
4. Saudi Arabia Companies Law (Royal Decree No. M/132 of 2022) // Official Gazette of the Kingdom of Saudi Arabia. – 2022. – URL: <https://laws.boe.gov.sa>
5. Federal Decree-Law No. 32 of 2021 on Commercial Companies of the United Arab Emirates // UAE Official Gazette. – 2021.
6. Companies Act 2016 of Malaysia (Act 777) // Federal Government Gazette. – 2016.
7. Abu-Tapanjeh A.M. Corporate governance from the Islamic perspective: A comparative analysis with OECD principles // Critical Perspectives on Accounting. – 2019. – Vol. 20. – P. 556–567.
8. Суханов Е.А. Сравнительное корпоративное право. – М.: Статут, 2014. – 456 с.
9. Рахмонкулов Х.Р., Гулямов С.С. Корпоративное право. – Ташкент: ТГЮУ, 2012. – 320 с.
10. Iqbal Z., Mirakhor A. An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. – 2nd ed. – Singapore: John Wiley & Sons, 2018. – 504 p.

